

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR VA ULARNING DAVLAT BOSHQARUVIGA TA'SIRI

Valiyeva Adiba Alisherovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU talabasi Tarix fakulteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat va jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lgan Konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati badiiy va falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Islohotlarning davlat boshqaruv tizimini yangilash, inson qadrini ulug'lash va huquqiy poydevorni mustahkamlashdagi hayotiy ahamiyati yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, islohot, davlat boshqaruvi, inson qadri, huquqiy davlat, demokratik tamoyillar, milliy g'oya, boshqaruv tizimi, xalq manfaati.*

“Adolat — bu mexanizmning asosi, uning barqarorligini ta'minlovchi muvozanatdir” yangilangan Konstitutsiyamiz bu mexanizmning nafaqat aniq ishlashini, balki u inson manfaatlari yo'lida xizmat qilishini ham kafolatlaydi shu islohotlar shamoli avvalo, davlat boshqaruvi tizimini qamrab oldi. Ilgari “davlat — jamiyat — inso” tamoyili ustuvor bo'lgan bo'lsa, bugun bu zanjir “inson — jamiyat — davlat” tarzida qayta shakllandi. Bu — hokimiyatning manbai va maqsadi faqat xalq manfaati ekanligidan dalolatdir, davlat organlari faoliyatida ochiqlik, xalqqa yaqinlik va hisobdorlik tamoyillari badiiy tilda aytganda, adolat quyoshi kabi porlamoqda, zero bu islohotlar shunchaki huquqiy o'zgarish emas, balki jamiyatimizning ma'naviy yangilanishi, insonning o'z huquq va qadr-qimmatini chuqur anglashiga xizmat qiluvchi yangi ijtimoiy falsafadir.

Zero, davlatning inson manfaatlari yo'lida xizmat qilishi — oliy adolatning amalda ekanligidir. Shubhasiz, inson qadri va uning huquqlari endilikda mavhum tushunchalar emas balki , kundalik hayotimizdagi muhim hayotiy haqiqatga aylandi. Birinchidan , yoshlarning sifatli ta'lim olish huquqidir, bugun olis qishloqlarda ham zamonaviy maktablarning barpo etilayotgani va oliy ta'limga qabul tizimining shaffoflashgani qomusimizdagi “ijtimoiy davlat” tamoyili qog'ozda emas, hayotda ekanligining yorqin isbotidir. Ikkinchidan, davlat xizmatlarining raqamlashishi inson vaqtini va huquqlarini amalda himoya qilmoqda.

Xususan, my.gov.uz portali orqali ortiqcha sarsongarchilik o'rnini raqamli xizmatlar va uydan chiqmagan holda xizmatlardan foydalanish imkoniyati — davlatning fuqaro uchun xizmat qilishiga oid yangi davr ko'zgidir, bu esa boshqaruv apparatining ixchamlashishi, mahalliy hokimiyat vakolatlarining kengayishi — bularning barchasi “xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan olijanob g'oyaning amaldagi ifodasidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nafaqat davlat qurilishi va boshqaruvining huquqiy asosi, balki har bir fuqaroning erkin va farovon yashashini ta'minlovchi baxt poydevoridir, Konstitutsiya— milliy g'ururimiz va huquqiy kafolatimizdir, u xalqimizning asriy qadriyatlarini o'zida mujassam etib, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya

qiladi, zero, qonun ustuvor bo'lgan joyda adolat bo'ladi, adolat bor joyda esa, shubhasiz, baxt va taraqqiyot qaror topadi.

Konstitutsiyaviy o'zgarishlar davlat boshqaruviga quyidagi yangiliklarni olib kirdi:

1. Ochiqlik va Shaffoflik: Boshqaruv organlari xalq ko'z o'ngida, uning nazoratida faoliyat yuritmoqda.

2. Inson qadri — Oliy maqsad: Har bir islohot insonning erkin va farovon yashashi uchun xizmat qiladi.

3. Adolatli sud tizimi: Yangi davr islohotlar sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash orqali jamiyatda adolat tantanasini mustahkamlamoqda.

Ma'lumki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda "Inson qadri uchun" degan olijanob tamoyil bosh mezon qilib olindi.

Bu shunchaki nazariy tushuncha emas, balki hayotimizdagi demokratik qadriyatlarning amaliy ifodasidir.

Masalan, ijtimoiy davlat tamoyilining mustahkamlanishi natijasida har bir fuqaroning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishi, yoshlarning ta'lim olishi hamda har bir insonning munosib uy-joyga ega bo'lish huquqi qat'iy kafolatlandi, 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijasida bosh qomusimiz yangi tahrirda qabul qilindi.

Ushbu islohot natijasida Konstitutsiya matni qariyb 65 foizga yangilanib, moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga ko'paydi.

Bu — adolatli jamiyat qurish yo'lidagi eng muhim qadamdir, shunday ekan, biz yoshlar Bosh qomusimizni nafaqat mukammal o'rganishimiz, balki unga amal qilishni o'zimizning insoniy va muqaddas burchimiz deb bilishimiz lozim.

Xulosa qilsak, Konstitutsiya faqat davlatni boshqarish hujjati emas, u har birimizning vijdon kodeksimizdir. Qonun ustuvor bo'lgan jamiyatda baxt va adolat barqaror bo'ladi, bu esa xalqimiz intilgan demokratik qadriyatlarning oliy ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (lex.uz)
2. Konstitutsiyaviy huquq – darslik 2022-yil 40-76 betlatr
3. Davlat va huquq nazariyasi –darslik 2025-yil yangi nashr 45-89 betlar
4. Shavkat Mirziyoyev – "Yangi O'zbekiston strategiyasi" (lex.uz)